

ADABIYOTSHUNOSLIK. TARJIMASHUNOSLIK  
LITERATURE. TRANSLATION STUDIES

## “Tarixi muluki ajam”ning uslubiy xususiyatlari

Qodirjon Ergashev<sup>1</sup>

### Abstrakt

Mazkur maqola Alisher Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarining uslubiy masalasiga bag'ishlangan. Asar tilining o'ziga xosligi, undagi adabiy va ilmiy uslub unsurlari mavjudligi ko'rsatilib, asar uchun ana shu ikki uslub xususiyatlarining sintezi xos ekanligi haqidagi xulosaga kelingan. Nasrdagi Navoiy uslubiga xos yetakchi tamoyillar tasniflanib, har biri alohida sharhlangan. Natijada, adibning nasriy asarlarini tekshirish mezonlari belgilab berilgan.

**Kalit so'zlar:** *uslub, sintez, adabiy plast, ilmiy plast, badiiylashtirish, ilmiy haqiqat.*

### Kirish

"Tarixi muluki ajam"ning uslubiy xususiyatlari muallifning asarni yozishda ko'zda tutgan maqsadi, o'z oldiga qo'ygan vazifalari bilan bog'liq ravishda yuzaga kelgan. Tadqiqotchilarning fikricha, "Tarixi muluki ajam" ulkan asarning bir qismi, to'g'rirog'i, muqaddimasi sifatida yozilgan. Mana shu hol hamda muallifning tarixiy bilimlarni turkiy ommaga sodda, lo'nda, tushunarli tarzda yetkazishdan iborat maqsadni o'z oldiga qo'ygani ushbu asarning uslub jihatidan o'ziga xos bo'lib chiqishiga, unga qadar fors tilida yaratilgan tarixiy nasrda kuzatiladigan an'anaviy uslubdan farq qiluvchi yangi uslubning yuzaga kelishiga sabab bo'ldi.

Ma'lumki, o'rta asr adiblari tarixiy nasrni ham badiiy san'atlar

---

<sup>1</sup>Ergashev Qodirjon Otajonovich – filologiya fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti.

**E-pochta:** ergashev-q@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-8407-7931

**Iqtibos uchun:** Ergashev, Q. O. 2021. "Tarixi muluki ajam"ning uslubiy xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 1: 41–49.

bilan bezab, o'zlarining suxandonliklarini, nasrdagi mahoratlarini namoyish qilib, fasohat-u balog'at bilan bitar edilar. Albatta, bir tomondan bu ijobiy hol bo'lib, tarixiy nasrni badiiy nasrga yaqinlashtiradi, tarixiy nasr namunalariga adabiy asar, nasrning, badiiy ijodnig bir turi sifatida qarash imkonini beradi. Lekin, ikkinchi tomondan, mualliflarning "izhori fazl" qilish uchun ortiqcha tirishuvlari, takallufni haddan oshirib yuborishlari uslubning murakkablashuviga, jimjimador, balandparvoz til va uslubning shakllanishiga olib keldi. Mirxond va Xondamirning, ulardan oldin o'tgan bir qator tarixchilarning asarlari xuddi shu uslubda yozilgan edi.

Alisher Navoiy o'ziga xos novatorlik bilan yuqorida ta'kidlangan yo'ldan bormadi va o'zi uchun yangi bir uslub kashf etdiki, buni birinchi bo'lib A.Hayitmetov ilg'agan va qayd qilib o'tgan edi. "Tarixi muluki ajam"ning yozilish stili, - deb yozadi olim bu haqda, - shubhasiz, ko'p tarix kitoblari uslubidan prinsipial farq qiladi. Ma'lumki, XV asrning ikkinchi yarmida bir qancha tarixchilar yashagan. Ularning eng mashhurlaridan Mirxond "Ravzat us-safo"ni yozishga kirishar ekan, Navoiyning unga: "... shunday bir tarix kitobi tartib qilinsinki, uning iboralari majoz, istiora, kinoya va boshqa murakkabliklarga o'ralmagan bo'lsin, sodda, har kimga tushunarli, qisqa va mo'jaz bo'lsin", - deganini aytadi. Lekin Mirxond o'z asarini Navoiy aytgan yo'lda emas, o'z salaflarining traditsion, dabdabali uslubida yozadi..." [Хайитметов 1977, 354].

Navoiy o'zining yuqoridagi g'oyasini "Tarixi muluki ajam"ni yozishda amalga oshirgani va garchi mavjud tarixnavislik an'analariga ko'p jihatdan sodiq qolgan bo'lsa-da, uslub masalasida mustaqil yo'l tutganini ta'kidlar ekan, A.Hayitmetov asar uslubiga xos ayrim xususiyatlarni ham ko'rsatib o'tadi: "Biz uning asarida qiyin, murakkab, mazmunsiz, balandparvoz ibora va tasviriy elementlarni, mavhum jummalarni deyarli ko'rmaymiz. U o'z fikrlarini mumkin qadar sodda ifodalashga intiladi. Chunki, uning fikricha, tarix kitobi katta tarixiy haqiqatlar haqida hikoya qiladi va bunday kitob har qanday o'quvchi yoki eshituvchiga, xoh u olim bo'lsin, xoh dehqon, yengil tushuniladigan bo'lishi kerak" [Хайитметов 1977, 355]. "Tarixi muluki ajam"da muallif o'z asarining uslubiy jihatdan sodda bo'lishiga e'tibor berganini S.G'aniyeva ham ta'kidlab o'tadi.

A.Hayitmetovning "Tarixi muluki ajam"ning uslubini yangi uslub sifatida e'tirof qilgani va u Navoiy uslubini o'rganishda katta ahamiyat kasb etishini ta'kidlagani diqqatga sazovordir: "Navoiy chuqur ijtimoiy-siyosiy mazmunga ega bo'lgan "Tarixi muluki ajam"ni

yoʻzish bilan oʻzbek tilida tarixiy asar yoʻzishning yangi bir uslubini ham yaratdi... Bu asar... Navoiyning oʻziga xos uslubini tekshirishda hamon katta ahamiyatga ega”.

### **“Tarixi muluki ajam” uslubidagi asosiy jihatlar**

Bizning tekshirishlarimiz shuni koʻrsatadiki, “Tarixi muluki ajam” uslubining asosiy jihati unda ikki – ilmiy va adabiy uslublar unsurlarining mavjudligi va sintezida namoyon boʻladi. Bu hol bejiz boʻlmay asar strukturasida bir-biri bilan uzviy bogʻlangan ikki plastning mavjudligi bilan izohlanadi. Bular ilmiy va adabiy plastlar boʻlib, “Tarixi muluki ajam”dagi tarixiy maʼlumotlar, faktlar, tarixiy voqealar va hodisalar qaydi **ilmiy plastni**, ularning badiiylashtirilgan bayoni, afsonaviy-romantik talqini **adabiy plastni** tashkil etadi.

“Tarixi muluki ajam”da ilmiy uslubga xos xususiyatlar quyidagilarda namoyon boʻladi:

1. *Tarixiy maʼlumotlar va bilimlarning tizimlashtirilishi va oʻquvchiga tizimli (sistemali) tarzda taqdim etilishi.*

Maʼlumki, maʼlumotlar va bilimlarning tizimga solinishi turli tarzda amalga oshirilishi mumkin. Navoiy bunda sulolaviy prinsipni tanlaydi va maʼlumotlar va faktlarni ana shu asosda tizimlashtiradi. Asarda Ajam tarixiga oid maʼlumotlar oʻsha davrda hukmronlik qilgan toʻrt sulolaga mos ravishda toʻrt qismga boʻlib bayon etilgan. Har bir qism oʻz navbatida sulolalarning vakillariga bagʻishlangan boʻlimlardan iborat. Bunda sulola vakillari ularning hukmronlik yillariga mos ketma-ketlikda zikr qilinadi, yaʼni sulolaviy prinsip bilan birga xronologik prinsip ham amal qiladi.

2. *Bayonning aniqligi va ravshanligi.*

Ilmiy uslub aniqlik va ravshanlikni talab qiladi. Navoiy buni yaxshi tushungan. Uning tarixchi Mirxondga tarix kitobining uslubi sodda, iboralari majoz, istiora, kinoya va boshqa murakkabliklardan xoli, har kim uchun tushunarli boʻlishi haqidagi soʻzlari shundan dalolat beradi. Aniqlik va ravshanlikka erishishning eng maqbul yoʻli – soddalik. Shu sababli muallif “Tarixi muluki ajam”da matn tuzishning kombinatsiyali usulini deyarli ishlatmaydi, murakkab badiiy vositalar va sanʼatlarni qoʻllashdan oʻzini tiyadi. Biz asar matnida u yoki bu hukmdor taʼriflangan yoxud uning faoliyatiga baho berilganda aniq, ayni paytda sodda va qisqa sifatlashlar qoʻllaganini koʻramiz: *oqil, odil, zolim, johdoʻst, badgumon, xiradmand, nodon* va hokazo. Masalan, Shopur binni Ardasher haqida: “Va oqil-u odil podshoh erdi”; Bahrom binni Hurmuz haqida: “Va bu Bahrom xudoparast erdi, va xiradmand podshoh erdi”; Faridun

haqida: “Yaxshi axloqliq, olim va odil podshoh erdi”; Hurmuz binni Nasri haqida: “Ul bag’oyat mutajabbir va mutavahhish kishi erdi”; Yazdijurd binni Bahrom haqida: “... ul zolim va nodon kishi erdi”.

Muallif faqat hukmdorlarni ta’riflashda emas, ular bilan bog’liq tarixiy voqealarni bayon qilishda ham aniqlik, ravshanlikka intiladi va bu hol matn kompozitsiyasida o’z aksini topadi. Matnning ko’p hollarda uncha uzun bo’lmagan, ixcham jumla va gaplardan iborat bo’lishi va ularning har biri konkret bir ma’lumot, axborot yoki faktni o’z ichiga olishi shundan dalolat beradi va Shopur binni Ardasher zikridan olingan quyidagi parcha misolida bunga ishonch hosil qilish mumkin:

“Chun otasi o’rnida taxtqa o’lturdi, ota rasmi va qonunin tag’yir bermadi va ul tayin qilg’an elni viloyatlaridin va manosibidin azl qilmadi. Va oqil-u odil podshoh erdi. Va anga arz qildilarkim, Qustantaniyada Rum qaysari o’z haddidin tajovuz qilibtur. Shopur Nisibin shahrin muhosara bila oldi va qaysarning xazoyinin tasarruf qildi. Qaysar o’z haddin bilib, shafi’lar vosita qilib, xiroj qabul qildi. Shopur fath va nusrat bila qaytti. Va aning osoridin Xurosonda Nishopurdirkim, ani Tahmuras bunyod qilib erdi, tuganmasdin burun buzug’luqqa yuz qo’ydi. Ammo Shopur ani yangi boshtin shatranj bisoti bila vaz’i bila obodon qildi” [Навойи 1967 (a), 210].

### *3. Bayonning izchilligi.*

“Tarixi muluki ajam”da Navoiy tarixiy ma’lumotlarni bayon etishda izchillikka qat’iy rioya qiladi. Asarning har bir qismi xronologik planda ham, mazmun planida ham oldingi qismlarning uzviy davomi sifatida namoyon bo’ladi. Muallif voqealardan oldinga o’tib ketmaydi. Shuningdek, muayyan fikrlar yoki voqealar bayonini bir nuqtada to’xtatib, boshqalariga o’tish, keyin esa yana avvalgi voqealarga qaytish holatlari ham deyarli kuzatilmaydi.

Izchillik matnning ichki tuzilishida ham saqlanadi. Bunda har bir jumla, ibora va uning mazmuni oldingilari bilan bog’liq bo’lib, ulardagi fikrni davom etdirish, to’ldirish hamda rivojlantirishga xizmat qiladi va bayonni ilgari surib, bayon zanjirining bir xalqasini tashkil etadi.

### *4. Fikrlarning asoslanishi va dalillanishi, ma’lumot va faktlarning tasdiqlanishi.*

Ilmiy asarlarga va ilmiy uslubga xos bu xususiyatlar “Tarixi muluki Ajam”da ham mavjud. O’zi berayotgan ma’lumotlar va bayon qilgan fikrlarni asoslash maqsadida Navoiy bir qator manbalarga murojaat qiladi. “Nizom ut-tavorix”, “Jome’ ut-tavorixi Jaloliy”, “Tarixi Tabariy”, “Jome’ ut-tavorixi Banokatiy”, “Muntaxob ut-tavorix”,

“Devon un-nasab”, Hamidulloh Al-Mustavfiyning “Tarixi guzida”, G‘azzoliyning “Nasihah ul-muluk”, Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma”si, Qozi Bayzoviyning tarixiy asari, Mirxond asarlari shular jumlasidandir.

Bundan tashqari Navoiy adabiy asarlar – dostonlarning tarixiy shaxslar va voqealar bilan bog‘liq jihatlariga ham e‘tibor qaratgan va o‘z kitobida sof tarixiy manbalar bilan bir qatorda ularga ham murojaat etgan.

*5. Tahliliy va tanqidiy ruhning mavjudligi.*

Tahlil va tanqid ilmiy uslubning asosiy komponentlaridir. Navoiyning manbalarga tanqidiy qaragani uning “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida keltirilgan quyidagi she‘ridan ko‘rinadi:

*Tarix ahlining ixtilofi ko‘ptur,  
“Shohnoma”ning andoqki lofi ko‘ptur,  
Ba’zi mutaassif el gazofi ko‘ptur,  
Sen degali ham nuktai vofi ko‘ptur* [Навоий 2011 (b), 623].

“Tarixi muluki ajam”ni tahlil qilish Navoiyning yuqoridagi she‘rda bildirgan fikrlari shunchaki aytilgan so‘zlar emasligini ko‘rsatadi. Asarning ko‘p o‘rinlarida Navoiy tarixiy manbalar va ularda keltirilgan ma‘lumotlarga o‘z munosabatini bildiradi, ularni tahlil, ayrim o‘rinlarda tanqid qiladi. Masalan, peshdodiylarning oxirgi vakili Girshosb zikrida u tarixiy asarlar mualliflarining Rustami dostonni Girshosb naslidan ekanligi haqida bergan ma‘lumotlariga ishonchsizlik bildiradi va shunday yozadi: “Ko‘prak tavorixda Rustami dostonni aning naslidin debdurlar. Ammo faqir qoshida bu qavl yiroqroq ko‘runur, nevchunkim, Zolkim, Rustamning otasidir, aning qoshida sipohsolor erdi va Girshosbni “Guzida”da va xeyli tavorixda Manuchehr nabiralig‘ig‘a chiqaribdurlar va Rustamni Som binni Narimon binni Atrub binni Abtung‘a yetkurubdurlar, vallohu a‘lam” [Навоий 1967 (a), 192].

Doro zikrida Navoiyning o‘limiga doir ikki versiya keltiradi va “Avvalg‘i qavl sahihroqdur” deya ularning birinchisi ishonchliroq ekanini ta‘kidlaydi. Asarning Ashkoniylarga bag‘ishlangan qismida u Hamidulla Mustavfiyning “Tarixi guzida” asarida o‘z fikriga o‘zi qarshi borgan holatni qayd etadi va tanqid qilib shunday yozadi: “Guzida”da Hamidulloh Al-Mustavfiy uch firqa qilib, yigirma bir podshoh bitibdur va ani muluki tavoyifdin tutubdur. Go‘yoki bu xud g‘alatdurkim, alar muluki tavoyif bo‘lg‘aylar, nechunkim o‘zi-o‘q tanoquz kelturubdurkim, muluki tavoyifdin ba‘zini Ashk binni Doro o‘lturdi va Ashkoniylarni bu Ashk binni Doro nasli debdur” [Навоий 1967 (a), 204].

### **“Tarixi muluki ajam”ning badiiy xususiyatlari**

“Tarixi muluki ajam”dagi afsona va rivoyatlar, tarixiy voqealarning afsonaviy-romantik tahlili asarning adabiy plastini tashkil etadi. Bu o’rinda shuni ta’kidlab o’tish lozimki, romantik talqinlar asarda tarixiy voqelikning, ma’lumotlar va faktlar mohiyatining buzilishiga sabab bo’lmaydi. Muallif tarixiy voqealarni bayon qilishda ularni qanchalik badiiylashtirmasin, baribir, tarixiy asos saqlanadi. Masalan, Ardasher Bobak zikrida keltirilgan lavhalarni oladigan bo’lsak, Ardasher Bobakning Ashkoniylarning so’ngi vakili Arduvonga qarshi kurash olib borгани, uni yengib, hokimiyatni egallagani va yangi Sosoniylar sulolasiga asos solgani tarixiy haqiqat va u “Tarixi muluki ajam”da o’z aksini topgan.

Voqealarni badiiylashtirib hikoya qilar ekan, Navoiy bunda romantik uslubga xos vosita va motivlardan foydalanadi, jumladan, Ardasher bilan bog’liq lavhalarda sarguzasht-romantik ruh, sevgi motivi, sir (vazirning qizni o’ldirmay, bola tug’ilgandan keyin uni yashirinch qatta qilishi va fursat yetganda Arduvonga haqiqatni aytib, sirni ochishi), tasodif (Ardasherning sharbat quyilgan idishni olishda tasodifan hayallashi va shu tufayli hayotining saqlanib qolishi) effektlari vositasida yuzaga keladi. “Tarixi muluki ajam”dagi bir nechta lavhalarda sevgi motivi qahramonning hayotini saqlab qolishga, uning og’ir ahvoldan qutulishiga xizmat qiladi. Ulardan biri podshoh Arduvon Ardasher Bobakning hayotiga qasd qilmoqchi bo’lgani va Ardasherni sevib qolgan kanizak bu haqda uni ogohlantirgani hamda ular birgalikda qochib qutulganlaridan. Ushbu motiv bilan bog’liq boshqa bir lavha Sosoniylar sulolasiga mansub shoh Shopuri Zulaktov zikrida uchraydi. Shopur o’zining kimligini tanitmay, oddiy odam qiyofasida Rumga boradi. Lekin u yerda Shopurni tanib qoladilar. Rum qaysari uni tutib, asir sifatida saqlaydi hamda qo’shin tortib, Shopurning mamlakatiga yurish qiladi. Qaysar Shopurni qo’riqlashga tayinlagan kishining qizi Shopurni ko’rib, unga muhabbat qo’yadi va asirlikdan qutqaradi. Ular qochib, birga Qazvinga keladilar. Bu haqda Navoiy shunday yozadi: “... va qaysar ani tutub, yalong’ochlab o’y xomiga tikib, mahbus qilib, sipoh tortib yurub, aning mulkin olib, ko’p buzug’luq qildi. Shopurni asrar kishining qizi oshiq bo’lub, ul hibsdin qutqarib, ikov qochib, Qazving’a keldilar” [Навоий 1967 (а), 208].

“Tarixi muluki ajam” uslubiga xos asosiy xususiyat - ilmiy va badiiy uslublar sintezining yuzaga kelishida hamda tarixiy voqealar va hodisalarning afsonaviy-romantik talqinida sarguzashttalablik, tomoshatalablik motivi ham muayyan rol o’ynaydi. Yuqoridagi

lavhada Shopurning o‘z qiyofasini o‘zgartirib, Rumga borishi ham ma’lum darajada ana shu motiv bilan bog‘liq.

Asarning Bahrom binni Yazdijurd (Bahrom go‘r) zikriga bag‘ishlangan qismida ham mazkur motiv katta o‘rin tutadi. Ushbu qismda muallif Bahrom bilan bog‘liq boshqa voqealar qatorida uning Hindistonga borgani va u yerdagi sarguzashtlari haqida ham hikoya qiladi. Navoiy bu voqealarga “g‘aroyibi umurdindur” (g‘aroyib ishlardandir – Q.E.) deb baho beradi: “Va Bahromning taxtni qo‘yub, musofarat tariqi bila Hindistong‘a borg‘onin ham, chun g‘aroyibi umurdindur, mujmalan bayon qilali” [Навоий 1967(a), 219]. Navoiyning yozganlaridan ma’lum bo‘lishicha, Bahromning Hindistonga borishi uchun biron-bir jiddiy sabab bo‘lmagan, faqat sarguzashttalablik, o‘zga yurtni ko‘rish, tomosha qilish ishtiyoqi uni bu safarga undagan. Navoiyning quyidagi so‘zlari buni ochiq ko‘rsatib turadi: “Bahrom tamosho va tafarruj va nishotqa moyil kishi erdi va xudroy va zabardast va o‘z tavonolig‘ig‘a e’timod qilib, bulajab ishlarg‘a mutasaddi bo‘lur erdi. Va alardin biri budurkim, Hindiston mulkin ajubasin eshitib, tafarrujini havas qildi va mulkni Narsig‘a topshurub, yoshurun eldin chiqib, Hindistong‘a bordi” [Навоий 1967 (a), 219].

Yuqoridagi singari romantik motivlar va talqinlar, voqealarning badiiylashtirilib bayon qilinishi “Tarixi muluki ajam”da zikr etilgan bir qator hukmdorlarga faqat tarixiy shaxslar sifatida emas, adabiy personajlar sifatida ham qarash imkonini beradi. Ularning orasida qiyofalari to‘laqonlilik kasb etgan, shaxsiyatining turli jihatlarini ochilib, badiiy obraz darajasiga ko‘tarilganlari ham bor. Mana shu o‘rinda Navoiy uslubining yana bir o‘ziga xosligi ko‘zga tashlanadi: u personajlarning asosiy, ularni boshqalardan ajratib turuvchi xususiyatlariga urg‘u beradi, mazkur shaxslarning boshqa fazilat va nuqsonlari, shaxsiyatiga xos o‘zga turli jihatlar ana shu yetakchi xususiyatlar fonida, ular bilan bog‘liq voqealar davomida ochilib boradi.

Buni Xusrav Parviz, Bahromgo‘r obrazlari misolida ko‘rish mumkin. Xusrav haqida hikoya qilganda, Navoiy uning tabiatidagi hokimiyatparastlik va zolimlikni asosiy xususiyatlar sifatida ko‘rsatadi. Xusravning zulmi “Tarixi muluki ajam”da shunday tasvirlanadi: “Bu hazayon jihatidin o‘n yetti o‘g‘lini bir hisorga solib, mahbus asrab, qo‘ymas erdikim, xotun kishi alar qoshida yovug‘ay, munajjimlar aytqon amr surat bog‘lag‘ay. Yana o‘z ulusidin, al-uhdatu al ar-raviy, yigirma ming kishini zindong‘a solib erdikim, bulardin ming kishi e’tiborliq, uluq kishilar erdi. Bir cherikda yaxshi



yurumadingiz, deb har kun nechani buyurub erdikim, o'ltururlar erdi" [Навоий 1967 (a), 229]. Asardagi talqinga ko'ra, Xisrav Parviz davlatining zavol topishiga va o'zining o'ldirilishiga uning xarakteridagi ana shu jihatlar sabab bo'lgan.

Bahromgo'rga bag'ishlangan qismda esa Navoiy Bahrom tabiatidagi aysh-ishratga, tomosha va sarguzashtga o'chlikni alohida ta'kidlaydi va tasvirleydi. Bahrom zikrida hikoya qilingan voqealar ham, Bahromning boshiga tushgan ishlar ham uning tabiatidagi aynan ana shu xususiyatlar bilan bog'liq ravishda yuz beradi. Bahromning aysh-ishratga berilishi tufayli davlat ishlarida o'pirilish yuz beradi, hokimiyat zaiflashadi, mamlakat xarob bo'ladi. Ahvol shu darajaga yetadiki, mulkiga dushman hujum qilganda, Bahrom unga qarshi turish uchun kuch topa olmaydi. Turk xoqoni mamlakatni osonlik bilan bosib oladi. Bahrom shaxsiyatining bir qator boshqa jihatlar ana shu istilodan keyingi voqealar davomida ochiladi. Vaziyatni to'g'ri baholagan Bahrom qarshilik ko'rsatish befoyda ekanligini sezib, o'zini chekkaga tortadi va ozgina sodiq kishilari bilan mamlakatdan chiqib ketadi. Shundan so'ng u sabr-toqat bilan qulay paytni poylaydi va ana shunday fursat kelishi bilan kutilmaganda hujum qiladi hamda g'alaba qozonadi. Bu o'rinda turk xoqoni istilosidan so'ng Bahrom shaxsiyatida yuz bergan o'zgarishlarning ko'rsatilishi tufayli u o'quvchi ko'z o'ngida statik emas, dinamik obraz sifatida namoyon bo'ladi.

Bunday dinamik tasvirning "Tarixi muluki ajam"ning boshqa o'rinlarida ham uchrashi uni Navoiy tasvir uslubiga xos xususiyatlardan biri sifatida qarash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

- Алишер Навоий (a). 1967. *Тарихи мулуки ажам*. 15 жилдлик, 14-жилд. Тошкент.
- Алишер Навоий (b). 2011. *Тарихи анбиё ва ҳукамо*. 10 жилдлик, 8-жилд. Тошкент.
- Ҳайитметов, А. 1977. "Тарихи мулуки ажам". Китобда: *Ўзбек адабиёти тарихи*. 5 томлик, 2-том. Тошкент: Фан.
- Ғаниева, С. 1981. *Алишер Навоийнинг прозаик асарлари*. Тошкент: Ўзбекистон.
- Эргешев, Қ. 2006. "Тарихи мулуки ажам"да тарихий ҳақиқат ва афсонавий-романтик талқин". *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 21-25. Тошкент.
- Эргашев, Қ. 2001. "Тарих аҳлининг ихтилофи кўптур". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 18-май.
- Қаюмов, А. 1983. "Навоийнинг умумий бир тарихга оид китоби тўғрисида" *Адабий мерос* 25: 18.



Валихўжаев, Б. 2002. "Алишер Навоийнинг насрий асарлари: тасниф ва тавсиф". *Мумтоз сиймолар*, 199-233. 1-жилд. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти.

## Methodological Features of "Tarihi Muluki Ajam"

Qodirjon Ergashev<sup>1</sup>

### Abstract

This article is dedicated to the style of "Tarihi Muluki Ajam" by Alisher Navoi. The work draws a conclusion about the specificity of the language of the work, the presence of literary and scientific stylistic elements in it and the synthesis of these two stylistic features. The guiding principles of Navoi's style in prose are classified and each is interpreted separately. As a result, the criteria for the examination of works of the author's prose were determined.

**Key words:** *style, synthesis, literary layer, scientific layer, fiction, scientific truth.*

### References

- Alisher Navoiy (a). 2011. *Tarihi muluki Azham*. 10 zhildlik, 8-zhild. Toshkent.
- Alisher Navoiy (b). 2011. *Tarihi anbijo va hukamo*. 10 zhildlik, 8-zhild. Toshkent.
- Hayitmetov, A. 1977. "Tarihi muluki Azham". Kitobda: *Uzbek adabijoti tarihi*. 5 tomlik, 2-tom, Toshkent: Fan.
- Ganieva, S. 1981. *Alisher Navoiyning prozaik asarlari*. Toshkent: Uzbekiston.
- Ergashev, Q. 2006. "Tarihi muluki Azham"da tarihiy haqiqat va afsonaviy-romantik talqin". *Uzbek tili va adabijoti* 5: 21-25. Toshkent.
- Ergashev, Q. 2001. "Tarih ahlining ihtilofi kuptur". *Uzbekiston adabijoti va sanati*, 18-may.
- Qajumov, A. 1983. "Navoiyning umumiy bir tarihga oid kitobi tugrisida". *Adabiy meros* 25: 18.
- Valihuzhaev, B. 2002. "Alisher Navoiyning nasriy asarlari: tasnif va tavsif". *Mumtoz siymolar*, 199-233. 1-zhild. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi Halq merosi nashrijoti.

---

<sup>1</sup>*Qodirjon O. Ergashev* – Candidate of Philological Sciences, Senior Researcher, Institute of Uzbek Language, Literature and Folklore under the Uzbekistan Academy of Sciences.

**E-mail:** ergashev-q@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0002-8407-7931

**For citation:** Ergashev, Q. O. 2021. "Methodological Features of "Tarihi Muluki Ajam". *Uzbekistan: Language and Culture* 1: 41-49.